

QO'QON XONLIGIDAGI HARBIY BOSHQARUV TIZMI

Abdulhayeva Zilola Bahromjon qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Tarix va Filalogiya fakulteti Tarix yo'nalishi

3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Qo'qon xonlikidagi harbiy qo'shin holati ma'muriy tuzilishi, xonlikdagi muntazam va nomuntazam qo'shin, harbiy mansablar va harbiy taminoti haqida ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: Sipoh, Amir al-muslimin, Amir ul-umaro, Qo'shbegi, Mingboshi, qil quyruq, qoracherik,

Kirish:

Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan Qo'qon xonligi (1709–1876) siyosiy, ijtimoiy va harbiy sohalarda o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Xonlikning barpo etilishi va uning siyosiy kuch sifatida shakllanishida harbiy boshqaruv tizimi muhim rol o'ynagan. Aynan harbiy qudrat xonlikni ichki tartibni saqlashda, hududiy kengayishda hamda tashqi dushmanlarga qarshi kurashishda asosiy omillardan biri bo'lgan. Qo'qon xonligi davrida harbiy tuzilma faqatgina jangovar kuch emas, balki davlat boshqaruvida ham muhim siyosiy vosita sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ushbu maqolada Qo'qon xonligining harbiy boshqaruv tizimi, uning tashkil etilishi, asosiy birliklari va ularning davlat tuzilmalaridagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Xon umumiy harbiy siyosatni belgilovchi va harbiy yurishlarga rahbarlik qiluvchi eng oliy harbiy rahbar hisoblangan. Ushbu maqolada Qo'qon xonligining harbiy boshqaruvi, uning tuzilishi, harbiy kuchlarning vazifalari hamda harbiy islohotlar haqida so'z yuritiladi

Harbiy boshqaruv tizimi:

O'zbeklarning ming qabilasi (urug'i) boshliqlaridan biri Shohruhbiy asos solgan Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o'rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan

musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmas edi. Xonlikda Buxoro amirligida bo'lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda Shayboniylar davrida qisman islohot qilgan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo'lgan. Xonlikda eng oliy va markaziy unvon xon unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo'lida bo'lgan. Qo'qon xonligiga asos solgan Ming urug'i vakillari Shohruhbiy vorislari dastlabki yillardanoq mamlakat sarhadlarini kengaytirish, davlat harbiy qudratini mustahkamlash maqsadida muhim qadamlar qo'ygan. Ular yangi tashkil topgan davlat tomonida amalga oshirilgan barcha ichki va tashqi siyosatda ma'lum miqdorda harbiy qo'shinga tayanib ish ko'rganlar. Qo'qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma'muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma'muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona amallariga bo'linar edi.¹ Tarixiy manbalar ma'lumotlariga asoslangan holda Qo'qon xonligida uch toifadagi - oliy, o'rta, quyi darajadagi harbiy mansab va unvonlar borligini kuzatish mumkin. Oliy darajadagi harbiy mansab va unvonlar toifasiga Mingboshi, amirlashkar, qushbegi, botirboshi, voliy (noib), qa'labon, quraboshi, yovar, to'pchiboshi, to'qsoba, ponsodboshilar. O'rta darajali mansab va unvonlar sirasiga esa yuzboshi, ellikboshi, dahboshi, qorovulbegilarni kiritish mumkin. Quyi darajadagi harbiy mansab va unvonlar askar, sarboz, navkar, mergan mahram botur, to'pchi, qo'rchi, qorovullardan iborat edi. Bu mansab va davogarlik unvon shaxslar tomonidan tayinlangan. Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xonlikdagi barcha tabaqa va urug'larni turli harbiy mansab va unvonlarga egalik qilishlari mumkin bo'lgan. Qo'qon xonligida ma'muriy va harbiy mansablarning birinchi darajasidan to yettinchi darajasigacha asosan o'zbeklar tayinlangan.² Qo'qon xonligi harbiy mansab va unvonlar tizimida mingboshidan keying o'rinda qushbegi lavozimi egalar edi. XIX asr 50-60 yillariga kelib, Qo'qon xonlig qo'shinida afg'onlardan iborat chet ellik yollanma askarlar ham xizmat qila boshlardi. "Asirga olingan boshqa dinga mansub odamlar musulmon dinini qabul qilish kerak, agar

¹ Rasulov N. Qo'qon Xonligining siyosiy tizimi: tarixiy o'rganishlar – Toshkent: Akademnashr. 2017

² Кокандское ханство (по новейшим известиям) // Туркестанский сборник. Т. 23. СПб., 1870.

asir musulmon dinini qabul qilsa, uni askarlar safiga qo'shganlar, agar rad etsa o'ldirganlar yoki bo'lmasa qul qilib sotib yuborilgan''Chet ellik yollanma askarlar va rus asirlarni qo'shinga jalb qilishdan maqsad qo'shini Yevropa uslubida jang qilishga o'rgatishdan iborat edi.³ O'z navbatida xonlik harbiy qudratini oshirishda nomuntazam qo'shin, yordamchi bo'linmalar – qoracherik va qilquyruq ham muhim ahamiyat kasb etardi va harbiy harakatlar vaqtida 20 ming kishi atrofida to'plangan.

Qo'qon xonligidagi harbiy mansablar:

1. Amir ul-umaro – amirlar amiri. Xon tomonidan keng vakolatlar berilgan (davlatdagi muhim ishlar, amaldorlarni amalga qo'yish va olish, davlatdagi ichki tartibni saqlash, saroydagi tartib – intizom kabilar) shaxs bo'lib, xondan keying eng yuqori mansab hisoblangan.

2. Amirlashkar – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo'qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikka teng bo'lgan.

3. Mingboshi – ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da'vogar bo'lgan. Bu unvon Sheralixon davrida (1842-1844 yy.) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan.

4. Botirboshi – botir bahodirlar boshlig'i. Besh yuz kishidan ko'p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga mas'ul edi. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish ishlariga ham boshchilik qilgan.

5. Qo'shbegi – harbiy qo'shinning boshlig'i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshi unvonini olishga da'vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin edi.

³ Batirov M. Qo'qon Xonligi va uning siyosiy-harbiy tarixi. – Toshkent: Sharq. 2015

6. Voli yoki voliy (noib, muovin) – tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning o‘rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy ma’muriy ishlariga boshchilik qilgan.

7. Qal’abon yoki kutvol – Qo‘qon xonligining chegeralarida joylashgan qal’a va istehkomlarining hokimi bo‘lib, shu hududlarning harbiy-ma’muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo‘lgan. Harbiy maqsadga ko‘ra, qal’abon vazifasiga dodxohdan qushbegigacha bo‘lgan shaxslar tayinlangan.

8. Qo‘rboshi – qo‘rxona ya’ni aslahaxona boshlig‘i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo‘rboshi qo‘rxona, miltiqxona, to‘pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo‘lgan.

9. Yofar – soqchilar boshlig‘i. Bu mansab egasining guruhi yuz nafar askardan iborat bo‘lgan. Yofar o‘z guruhining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib bergan. Manbalarda yofarlar g‘allagir (g‘alla oluvchi), javgir (bug‘doy oluvchi) va sarp o‘luvchi sifatida ham qayd etilgan.

10. To‘pchiboshi – to‘pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig‘i.

11. To‘qsabo – o‘zlarining tug‘iga ega bo‘lgan harbiy guruhning boshlig‘i.

12. Ponsadboshi – besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari.

13. Yuzboshi – yuz kishilik harbiy dasta boshlig‘i.

14. Panjohboshi – ellikboshi, ellik nafarli harbiy guruh boshlig‘i.

15. Dahboshi – o‘n kishilik harbiy guruh boshlig‘i.

16. Qorovulbegi – soqchilar va qorovullar boshlig‘i.

Harbiylar qatoriga askar, sarboz, nukar, sipohi, mergan, mahram, botur, to‘pchi, zanbarchi, qo‘rchi, qorovul kabilar ham kirib, qo‘shin safida, nog‘orachi, surnaychi, to‘g‘chi (bayroqdor) kabilar ham xizmat qilganlar. Bu harbiy unvonlar orasida

mingboshidan ponsadboshigacha bo'lganlari oliy unvonlar, qo'rboshidan qorovulboshigacha bo'lganlar o'rta unvonli mansablar, qolganlari esa past unvonlar hisoblangan. Elikboshidan mingboshigacha bo'lgan harbiy lavozimdagi amaldorlar o'z xizmatlariga mulozimlar olganlar.⁴ Ponsadboshidan yuqori mansabdagi harbiylarga yana mirzolar va munshiyalar ham xizmat qilgan. Manbalarda harbiylarga saroydan yiliga turli hajmdagi maosh berilganligi qayd etilgan.

Xulosa:

Xulosa o'rnida aytish lozimki Qo'qon xonlari Olimxon, Umarxon, Madalixon davrlariga oid manbalardan askarlarning turmush tarzi bir oz yaxshiroq bo'lganini ko'rish mumkin. Chunki, bu hukmdorlar vaqtida, ayniqsa Olimxon zamonida harbiy islohatlar o'tkazilib, askarlar hayotiga ham jiddiy munosabatda bo'lingan. Bular orqali Qo'qon hukmdorlari qo'shini har tamonlama tamin etishga harakat qilganligidan dalolat beradi. Qo'qon xonligining harbiy boshqaruv tizimi xonlikning siyosiy barqarorligi va hududiy yaxlitligini saqlab qolishda muhim rol o'ynagan. Harbiy tuzilma faqatgina jangovar kuch emas, balki markaziy hokimiyatni mustahkamlovchi siyosiy va ma'muriy vosita sifatida ham xizmat qilgan. Lashkar tuzilmasining qat'iy tartibga solingani, harbiy sarkardalarning vakolati va majburiyatlari aniq belgilangani xonlik armiyasining muayyan davrlarda yuqori harbiy salohiyatga ega bo'lishiga imkon yaratgan. Biroq, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ichki siyosiy nizolar, markaziy boshqaruvning zaiflashuvi hamda Rossiya imperiyasining bosqinchilik harakatlari xonlik harbiy tizimining izdan chiqishiga olib keldi. Shunga qaramay, Qo'qon xonligining harbiy boshqaruv tizimi Markaziy Osiyo tarixida muhim tajriba sifatida o'z o'rniga ega bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. A'zamov A. O'rta Osiyo davlatlari tarixidan – Toshkent: O'qituvchi. 2000
2. Batirov M. Qo'qon Xonligi va uning siyosiy-harbiy tarixi. – Toshkent: Sharq. 2015

⁴ Ибрат Исхокхон Жунайдуллохожа Фаргона тарихи. — Т., 1991. Б. 297.

3. Berdimuratov S. Oʻrta asrlar Oʻrta Osiyo: siyosat, iqtisod, ijtimoiy tuzilma. – Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti. 2010
4. Joʻraev M. Qoʻqon Xonligi: tarixiy tahlil. – Toshkent: Fan.2002
5. Mahmudov F. Oʻrta asrlar Oʻrta Osiyosidagi feodal tizimi va boshqaruv tuzilmalari. – Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.2001
6. Rasulov N. Qoʻqon Xonligining siyosiy tizimi: tarixiy oʻrganishlar – Toshkent: Akademnashr. 2017
7. Yuldashev S. Oʻrta Osiyoda feodalizm va uning rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2008
8. Isomiddinov A. Xonliklar davri: Oʻrta Osiyo tarixining yangi sahifalari. Toshkent: Oʻrta Osiyo tarixining muammolari. 2013
9. Muhamedov E. Oʻrta asrlar shaharlarida boshqaruv tizimi va ijtimoiy tuzilma. – Toshkent: Sharq. 2010
10. Hakimov A. Xonliklarning siyosiy va ijtimoiy-huquqiy tuzilmalari. – Samarqand: Universitet nashriyoti. 2011
11. Хакимхон ибн Саййид Маъсумхон. Мунтахаб — ут — таворих. —. ЎзР ФА ШИ. кўлёзма №_594. 281б — варақ.
12. Ибрат Исхокхон Жунайдуллохожа Фаргона тарихи. — Т., 1991. Б. 297.
13. Кокандское ханство (по новейшим известиям) // Туркестанский сборник. Т. 23. Спб., 1870.